



2019 yilning yanvar - dekabr oylarida Qashqadaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **20552,2 mlrd. so'mni**, sanoat ishlab chiqarish indeksi **94,4 % ni** tashkil etdi.
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish **4018,5 mlrd. so'mni**, o'sish sur'ati **112,3 % ni** tashkil etdi.
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **19,6 %**
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **23,2 %**

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2019 yilning yanvar - dekabr oylarida viloyat korxonalaridan 20552,2 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 94,4 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida, sanoat ishlab chiqarish indeksi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan tog' - kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda – 90,1 % ni, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida – 97,4 % ni, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda – 99,3 % ni va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda – 72,3 % ni tashkil etdi.

2019 yilning yanvar - dekabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi







Tog' - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog' - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2019 yilning yanvar - dekabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 8996,6 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 43,8 % ni tashkil etdi.

Tog' - kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo'yicha o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan tabiiy gaz hajmining – 96,2 % ni, gaz kondensati – 99,2 % ni, neft qazib olish – 93,8 % ni, qum – 84,6 % ni, shag'al – 84,8 ni, chaqiq tosh – 78,5 % ni tashkil etdi.

Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik korxonalar tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2018 yil yanvar – dekabr oylarida ishlab chiqarilgan	Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari	2019 yil yanvar – dekabr oylarida ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, % da
	Tabiiy gaz, mln. kub. m.		
33691,2		32426,8	96,2 ↓
	Gaz kondensati, ming t.		
1414,4		1403,4	99,2 ↓
	Neft, ming t.		
565,0		529,8	93,8 ↓
	Qum, ming tonna		
173,4		146,7	84,6 ↓

2018 yil yanvar – dekabr oylarida ishlab chiqarilgan	Tog’- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari	2019 yil yanvar – dekabr oylarida ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, % da
195,8	Shag`al, ming t. 	165,9	84,8 ↓
148,0	Chaqiq tosh, ming t. 	116,3	78,5 ↓


Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2019 yilning yanvar - dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 8866,5 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlari hajmining 43,1 % ni tashkil etdi.

2019 yil yanvar - dekabr oylarida ishlab chiqarish sanoati tarkibi, %



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining ulushi 0,1 % ni (2018 – yil yanvar - dekabr oylarida – 0,1 %), o`rta - yuqori texnologiyali – 28,0 % (27,8 %), o`rta - quyi texnologiyali – 6,3 % (5,7 %) va quyi texnologiyali – 65,6 % (66,4 %) tashkil etdi.

Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo`yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, %



O'z navbatida sanoatning mazkur tarmog'ida o'tgan yilning mos davriga nisbatan paxta tolasi – 39,7 % ni, o'simlik yog'i (tozalangan) – 40,2 % ni, yumshoq bug`doy va spelta uni – 106,8 % ni, ip-kalava – 118,9 % ni, plastmassa quvurlar – 94,9 % ni, alkogol ichimliklar – 92,7 % ni, kaliy xlorid – 109,2 % ni va polietilen – 99,7 % ni tashkil etdi.

***Ishlab chiqaradigan sanoatda
yirik korxonalar tomonidan ayrim turdagi sanoat
mahsulotlarini ishlab chiqarish***

2018 yil yanvar – dekabr oylarida ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019 yil yanvar – dekabr oylarida ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, % da
	Paxta tolasi, t.		
118422,0		46999,0	39,7 ↓
	O'simlik yog'i (tozalangan), t.		
23242,5		9342,1	40,2 ↓
	Yumshoq bug`doy va spelta uni, t.		
129979,9		138753,7	106,8 ↑
	Ip-kalava, t.		
20363,0		24217,0	118,9 ↑
	Plastmass quvurlar, t.		
4739,0		4495,0	94,9 ↓
	Alkogol ichimliklar, ming. litr		
2888,0		2678,1	92,7 ↓

2018 yil yanvar – dekabr oylarida ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019 yil yanvar – dekabr oylarida ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, % da
Kaliy xlorid, ming t. K2O			
182,4		199,1	109,2 ↑
Polietilen, ming t.			
135,1		134,7	99,7 ↓



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.

2019 yil yanvar - dekabr oylarida elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2549,7 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 12,4 % ni) tashkil etdi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 139,4 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ni) tashkil etdi.


O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlarning 1,5 % ga oshganligini, chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish va utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlarning esa 37,8 % ga kamayganligi kuzatildi.



Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.


2019 yilning yanvar - dekabr oylarida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 4018,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 112,3 % ni tashkil etdi, jami sanoatdagi ulushi esa 19,6 % ni tashkil etdi.

2019 yilning yanvar - dekabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



2019 yil yanvar - dekabr oylarida iste'mol mollari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari 57,6 %, nooziq-ovqat mahsulotlari - 42,4 %, va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida sharob va aroq mahsulotlari va pivo – 2,2 % tashkil etdi.

Yanvar - dekabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da



■ Oziq-ovqat tovarlari ■ Nooziq-ovqat tovarlari


■ Oziq-ovqat tovarlari ■ Nooziq-ovqat tovarlari

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 1706,7 mlrd. so`mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 8,3 % ni tashkil etdi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarning sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, %



■ Boshqa korxonalar

■ Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar

■ Boshqa korxonalar


■ Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning umumiy hajmida tog` - kon sanoati va ochiq konlarni ishlab chiqarish korxonalarining ulushi 57,1 %, ishlab chiqarilgan sanoat korxonalarining ulushi 42,9 % ni tashkil etdi.

Shahar va tumanlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Muborak tumani (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 31,6 %), G'uzor tumani (21,8 %), Qarshi shahri (12,8 %), Nishon (11,6 %), Qarshi (3,7 %) va Koson (3,1 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


2019 yilning yanvar - dekabr oylarida shahar va tumanlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da




Shu bilan birga eng kam ulush Kasbi (1,0 %), Mirishkor (1,4 %), Qamashi (1,4 %), Chiroqchi (1,5 %), Shahrisabz (1,7 %) va Yakkabog' (1,7 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

Jami sanoat mahsulot ishlab chiqarish hajmidan Muborak tumani 6496,0 mlrd. so`mni, G`uzor tumani 4488,2 mlrd. so`mni, Qarshi shahri 2630,1 mlrd. so`mni va Nishon tumani 2385,6 mlrd. so`mni tashkil etdi.

2019 yilning yanvar - dekabr oylarida shahar va tumanlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmi



2019 yilning yanvar - dekabr oylarida shahar va tumanlar bo`yicha sanoat ishlab chiqarish indeksi, 2018 yil yanvar - dekabr oylariga nisbatan, % da



—●— 2018 yil yanvar - dekabrga nisbatan, % da

Hududlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirish bo`yicha amalga oshirilayotgan izchil chora - tadbirlar natijasida Kitob tumanida (2018 yil yanvar – dekabr oylariga nisbatan 120,8 %), Mirishkor tumanida (111,7 %), Shahrisabz sh. (111,6 %), Qarshi sh. (111,3 %), Chiroqchi tumanida (109,0 %), Yakkabog` tumanida (108,9 %) va Dehqonobod tumanida (107,9 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlari sezilarli darajada oshishiga imkon berdi.

**2019 yil yanvar - dekabr oylarida shahar va tumanlar bo`yicha
istemol mollari ishlab chiqarish hajmi va o`shish sur`ati**


	Mlrd. so`m	2018 yil yanvar – dekabrga nisbatan o`shish, %
Qashqadaryo viloyati	4018,5	112,3
Qarshi sh.	1285,9	112,2
Shahrisabz sh.	285,5	112,2
tumanlar:		
G'uzor	100,7	113,4
Dehqonobod	65,8	115,6
Qamashi	198,7	115,5
Qarshi	214,3	113,0
Koson	344,0	100,2
Kitob	258,7	114,3
Mirishkor	91,2	115,9
Muborak	91,7	115,2
Nishon	98,6	115,9
Kasbi	114,0	116,0
Chiroqchi	241,8	115,2
Shahrisabz	328,7	115,6
Yakkabog`	298,9	113,1

Iste`mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi Kasbi tumanida (2018 yil yanvar – dekabr oylariga nisbatan 116,0 % ni), Mirishkor tumanida (115,9 % ni), Nishon tumanida (115,9 % ni), Shahrisabz tumanida (115,6 % ni), Dehqonobod tumanida (115,6 % ni), Qamashi tumanida (115,5 % ni), Muborak tumanida (115,2 ni) va Chiroqchi tumanida (115,2 % ni) tashkil etdi.

Shuningdek, Iste`mol tovarlari hajmining eng katta qismi Qarshi shahar (iste`mol tovarlari hajmida 32,0 %), Koson tumanida (8,6 %), Shahrisabz tumanida (8,2 %) va Shahrisabz shahrida (7,1 %) ishlab chiqarildi.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlili Muborak tumanida (75799,3 ming so'm), G'uzor tumanida (22296,2 ming so'm), Nishon tumanida (15861,6 ming so'm) va Qarshi shahrida (9637,7 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (viloyat – 6330,4 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

2019 yilning yanvar – dekabr oylarida shahar va tumanlarda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari va iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi, ming so'mda




Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 4769,7 mlrd. so`mni, jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 23,2 % tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Kitob tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Qamashi (93,2 %), Yakkabog` tumanida (79,7 %), Shahrisabz tumanida (79,5 %), Chiroqchi tumanida (79,4 %), Mirishkor tumanida (78,7 %) va Qarshi shahrida (64,6 %) kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichkina ulush Muborak tumanida (1,7 %), G`uzor tumanida (2,2 %), Nishon tumanida (11,2 %) va Dehqonobod tumanida (12,2 %) kuzatildi.


2019 yilning yanvar - dekabr oylarida tumanlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda ulushi, % da



Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari.

Bugungi kunda viloyatda 3 mingdan ziyod sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 680 tasi Qarshi shahrida, 402 tasi Kitob tumanida, 301 tasi Yakkabog` tumanida, 296 tasi Shahrisabz shahrida, 279 tasi Qarshi tumanida, 272 tasi Chiroqchi tumanida, 189 tasi Qamashi tumanida, 183 tasi Shahrisabz tumanida, 168 tasi G`uzor tumanida, 120 tasi Nishon tumanida, 119 tasi Kasbi tumanida, 76 tasi Mirishkor tumanida, 66 tasi Dehqonobod tumanida va 63 tasi Muborak tumanida joylashgan.

2020 yil 1 yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni



Joriy yilning yanvar - dekabr oylarida viloyatda 1155 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ulardan 190 tasi Qarshi shahriga, 102 tasi Yakkabog` tumaniga, 121 tasi Chiroqchi tumaniga, 106 tasi Qarshi tumaniga, 93 tasi Kitob tumaniga, 91 tasi Shahrisabz tumaniga, 68 tasi Nishon tumaniga, 78 tasi Shahrisabz shahriga, 57 tasi Qamashi tumaniga, 55 tasi Kasbi tumaniga, 65 tasi G`uzor tumaniga, 58 tasi Koson tumaniga, 30 tasi Mirishkor tumaniga, 22 tasi Dehqonobod tumaniga va 19 tasi Muborak tumaniga to'g'ri keladi.

Sanoat statistikasi bo`limi

Tel.: (75) 221-32-36